



G'URALASHSOYDA UCHRAYDIGAN GO'NGQARG'A (*CORVUS FRUGILEGUS L.*) NING BIOLOGIYASI

Yangibayev Azamat Yangiboy o'g'li
Zomin davlat qo'riqxonasining ilmiy xodimi

Turatov Quvonchbek Abdullayevich
*Zomin davlat qo'riqxonasi ilmiy ishlar
bo'yicha direktor o'rinbosari*

Avalbayev Olimjon Narkuzievich
*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar
vazirligi "Umumta'lim fanlar" kafedrasida
boshlig'i, dosent*

Annotasiya: Ushbu maqolada G'uralashsoyda uchraydigan go'ngqarg'a (*Sorvus frugilegus L.*) ning biologiyasi haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: tur, turkum, qarg'a, hasharot, urug', meva, tuxum.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о биологии навозная ворона (*Sorvus frugilegus L.*) встречающегося в Гуралашсой.

Ключевые слова: вид, род, ворона, насекомое, семя, плод, яйцо.

Abstract: This article presents information about the biology of the sorrel (*Sorvus frugilegus L.*) found in Ghuralashsoy.

Keywords: species, genus, crow, insect, seed, fruit, egg.

Dunyoda qush (*Aves*) larning 8600 ga yaqin turlari aniqlangan. Ular yer yuzida bir tekis tarqalmagan bo'lib, eng ko'p turlari ekvator va tropik mintaqalarda uchraydi. Shu jumladan, shimoliy Yevroosiyo va Amerikada 250 ga yaqin, Janubiy Amerikaning tropik mintaqasidagi Kolumbiyada 1700 ga yaqin qush turlari aniqlangan. Hozirgi kunda qushlar sinfining 27 turkumi bo'lib, 163 oilani tashkil etadi. O'zbekiston hududida qushlar sinfining 19 turkumi, 57 oilasi bo'lib, 441 turlari aniqlangan. Qushlar sinfi ichida chumchuqsimonlar eng katta turkum hisoblanib, 66 oilaga mansub 5120 tur mansub. Chumchuqsimonlar turkumi ichida qarg'alar oilasi o'ziga xos belgilari bilan ajralib turadi. O'zbekistonda qarg'alar oilasiga mansub 11 turi uchraydi. Ular ichida go'ngqarg'a (*Corvus frugilegus* Linneus, 1758) bugungi kunda eng ko'p uchraydigan turlardan hisoblanadi.

Qish oylarida mamlakatimiz hududida go'ngqarg'alar juda ham ko'p bo'lib, yoz oylarida esa ayrim joylardagina uchratishimiz mumkin. Go'ngqarg'aning boshqa turlardan xarakterli belgilari bo'lib, tumshug'ining asosini oqishroq teri yalang'och xalqadek o'rab turishi va tana patlarining bronza



rangda bilinar-bilinmas tovlanishi bilan farqlanadi. Narlari tanasining uzunligi 450-500, qanotining uzunligi 300-340, qanotlarini yozganda esa 915-990 mm ga, tanasining og'irligi 310-490 gr bo'lib, modasi bir oz kichikroq bo'ladi. Go'ngqarg'alar Markaziy va janubiy Yevropa, Eron, Shimoliy Hindiston hamda Xitoy mamlakatlarida qishlaydi. Mamlakatimizdagi mahalliy go'ngqarg'alar o'troq holda yashaydi, qish boshlanishi bilanoq, Markaziy Osiyoning janubiga uchib ketishadi. Qozog'iston va Sibirdan uchib kelgan go'ngqarg'alar esa qishlab qolishadi.

Go'ngqarg'alarning yana bir xarakterli tomoni shundaki, ular koloniya hosil qilib yashaydi. Jizzax viloyati hududida kuzatish olib borilganda Jizzax-G'allaorol yo'nalishidagi Sarbozor bekatigacha bo'lgan joylardagi asosiy transport yo'lining o'ng tomonida go'ngqarg'alarning 136 ta, chap tomonida esa 248 ta uyasi (2017), G'allaorol-Qo'yto'sh yo'nalishidagi Qoratosh qishlog'i atrofida 158 ta (2020), Zomin davlat qo'riqxonasi G'uralashsoy hududida 132 ta (2023) uyasi borligi aniqlandi. Go'ngqarg'alar asosan 5-8 m balandlikdagi terakka, bir ozlari qayrag'och daraxtlariga uya qurgan. Go'ngqarg'alar uyasining shakli ular yashaydigan ekologik shart-sharoitlarga bog'liq. Ularning uyalarini kuzatganimizda quruq xas cho'plardan tartibsiz holda qurganligini ko'rdik. Uyalari chuqur kosali bo'lib, tashqi aylanasi 67 sm, balandligi 25-67 sm, ichki aylanasi 15-25 sm, chuqurligi 7,5 sm dan 13 sm gacha bo'ladi. Uyasini mayin o't o'simliklar bilan va jun aralashmasi bilan to'shagan. Uyalarni mustahkamlashda jun va patlardan foydalangan. Ular yirik uyalarini yangilab, bir necha yilgacha shu uyasidan foydalanishlari mumkin.

Go'ngqarg'a ko'payishni o'zlari qurgan uyalarda boshlaydi. Mart oyining oxirlarida modalari 3 tadan 6 tagacha qo'ng'ir aralash yashil holli juda ham kichikroq tuxum qo'yadi. Tuxumlarining kattaligi 41,0 x 28,3 mm ga boradi. Modasi birinchi tuxumini qo'ygan zahoti darrov tuxum bosishga kirishadi, bu davr 18-22 kun davom etadi. Shuning uchun bolalari har xil yoshda bo'ladi. May oylaridan boshlab yosh qushchilar uyasidan uchib chiqishadi.

Odatda, jo'ja ochuvchi qushlarning tuxumi jish bola ochuvchi qushlarning tuxumidan ancha ko'p bo'ladi. Go'ngqarg'alar jish bola ochuvchi qushlardir. Ularning polaponlari ko'zi berk, tanasi yalangoch, ojiz bo'lib, ularni ota-onalari uzoq vaqt boqishadi. Jish bola ochuvchi qushlarning tuxumi jo'ja ochuvchi qushlar tuxumi sariqligi va boshqa qismlari orasidagi farq aniqlangan. Bu ko'rsatgich go'ngqarg'alarda 10-18 % gacha bo'lishi mumkin.



Go'ngqarg'alarning hayotiy jarayoni ma'lum bir biologik ritmga bog'liq. Bu biologik ritm yil fasllarining o'zgarishiga va yashash muhitiga moslanish irsiyatiga bog'liq. Ularning hayotiy jarayoni har xil biologik holatiga bog'liq.

Qishda yashash sharoitining yomonlashuvi yozga nisbatan oziq topishning og'irlashuviga sabab bo'ladi. Bu asosiy oziqning kamayishi, kunning qisqarishi, qorning ko'p yog'ishi, suvlarning muzlab qolishi bilan yuzaga keladi. Go'ngqarg'alarning noqulay sharoitga bardosh berishi oziq izlab harakat qilishiga bog'liq. Kuzatishimizcha, Jizzax shahriga uchib kelgan go'ngqarg'alar ertalab shahar chetidagi axlat maydonlariga borib, oziqlanishadi va kunning ikkinchi yarmida galalashib daraxtlarga qo'nishadi yoki osmonda bir oz parvoz qilishadi.

Go'ngqarg'alar bolalarini har xil hasharotlar, yomg'ir chuvalchangi, qo'ng'iz lichinkalari, kapalik g'umbaklari, ko'pgina qurtlar, don, yovvoyi o'simliklarning urug'i va mevalar bilan oziqlantiradi.

Go'ngqarg'alarning ekologik mohiyati juda muhim. Ular bir vaqtning o'zida ham foydali, ham zararli bo'lishi mumkin. Go'ngqarg'alar dala va yaylovlarda hasharotlarni qirib foyda keltiradi, ba'zi joylarda ular chigirtkalar bilan oziqlanadi. Bir tomondan go'ngqarg'alar donli o'simliklarning mevasi, yovvoyi o'simliklarning urug'i bilan oziqlanadi. Shu bilan bir qatorda u chirindiga boy tuproqqa yong'oq mevalarini tashlab, tarqalishiga yordam beradi. Ba'zi daraxtlarning meva urug'lari qushlarning ovqat hazm qilish tizimidan o'tib yanada hayotchan bo'ladi. Shuning uchun go'ngqarg'alarni asrashimiz, uyalarini buzmasligimiz va polaponlariga ozor yetkazmasligimiz lozim. Jizzax-G'allaorol yo'nalishidagi transport yo'l atrofidagi daraxtlarni kesish oqibatida go'ngqarg'alarning uyalarini kamayib ketganligining guvohi bo'ldik. Baxmal tumanining Muzbel qishlog'i atrofida 2008 yil qish qattiq kelishi oqibatida daraxtlarning sinib ko'pgina go'ngqarg'alarning uyalarini vayron bo'lganligini ko'rdik. Ba'zi odamlar uy sharoiti uchun go'ngqarg'alarning uyalarini xo'jalik sharoitida o'tin sifatida foydalanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Jizzax-G'allaorol yo'nalishidagi Sarbozor bekatigacha bo'lgan joylardagi asosiy transport yo'lining o'ng tomonida go'ngqarg'alarning 136 ta, chap tomonida esa 248 ta uyasi (2017), G'allaorol-Qo'ytosh yo'nalishidagi Qoratosh qishlog'i atrofida 158 ta (2020), Zomin davlat qo'riqxonasi G'uralashsoy hududida 132 ta (2023) uyasi borligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Наумов С.П. Умурткали хайвонлар зоологияси (А. Абдуллаев таржимаси), -Тошкент. 1995. "Ўқитувчи" нашриёти. 260-б.



2. Константинов В.М. Зоология позвоночных. –Москва, Издательство “Академия”, 2000.
3. Богданов О.П. Ўзбекистон хайвонлари (умуртқалилар). -Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёти. 1983.
4. Дадаев С., Тўйчиев С., Ҳайдарова П. Умуртқалилар зоологиясидан лаборатория машғулоти. Ўқув қўлланма. -Тошкент. “Ўзбекистон” нашриёти. 2006.
5. Наумов Н.Н., Карташёв Н.Н. Зоология позвоночных в 2-х частях. Издательство “Высшая школа”, Москва, 1979.
6. Жизнь животных. 1-6 т. Просвещение. 1981-86.

